

**“PAXTASANOAT ILMIY MARKAZI” AQSIYADORLIK JAMIYATI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.30/30.11.2021.T.141.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“PAXTASANOAT ILMIY MARKAZI” AKSIYADORLIK JAMIYATI

MUXAMMADIYEV UMARALI SHERALIYEVICH

**METALL VA ENERGIYA SARFINI KAMAYTIRISHDA UXK AGREGATINI
YIRIK IFLOSLIKLARDAN TOZALASH SEKSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03 – “Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari”

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Muxammadiyev Umarali Sheraliyevich

Metall va energiya sarfini kamaytirish uchun UXK agregatini yirik iflosliklardan tozalash seksiyasini takomillashtirish..... 3

Мухаммадиев Умарали Шералиевич

Усовершенствование секции очистки от крупного сора агрегата UXK для снижения металло и энергоемкости..... 23

Mukhammadiyev Umarali Sheraliyevich

Improvement of the large litter cleaning section of the UHK unit to reduce metal and energy consumption..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 46

**“PAXTASANOAT ILMIY MARKAZI” AKSIYADORLIK JAMIYATI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.30/30.11.2021.T.141.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“PAXTASANOAT ILMIY MARKAZI” AKSIYADORLIK JAMIYATI

MUXAMMADIYEV UMARALI SHERALIYEVICH

**METAL VA ENERGIYA SARFINI KAMAYTIRISHDA UXK AGREGATINI
YIRIK IFLOSLIKLARDAN TOZALASH SEKSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

05.02.03-"Texnologik mashinalar.Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari"

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.04.PhD/T3310 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJda bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) «Paxtasanoat ilmiy markazi» AJ xuzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida <http://paxtasanoatilm.uz/> va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar:

Quliyev Toxir Mamarajapovich
texnika fanlari dotori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rasulov Ro'zimurod Xasanovich
texnika fanlari dotori, professor

Madraximov Dilshod Usupjonovich
texnika fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Andijon mashinasozlik instituti

Dissertatsiya himoyasi «Paxtasanoat ilmiy markazi» aksiyadorlik jamiyati huzuridagi DSc.30/30.11.2021.T.141.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «26» avgust kuni soat 11-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUYAITI. Tel: (+99871) 207-04-03; faks: (+99871) 256-04-21; e-mail: info@paxtasanoatilm.uz. (Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti binosi, 1-qavat, majlislar zali).

Dissertatsiya ishi bilan «Paxtasanoat ilmiy markazi» aksiyadorlik jamiyati Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№36-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUYAITI. Tel.: (+99871) 207-04-03.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «16» avgust kuni tarqatildi.
(2024 yil «16» avgustdagi №36 raqamli reestr bayonnomasi).



Q.Jumaniyazov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi o'rinbosari, t.f.d., prof.

M.R.Mo'minov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d., k.i.x.

R.Sh.Sulaymonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi o'rinbosari, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxta tolasini to'qimachilik sanoatida qo'llash asosiy xamoshyolardan biri bo'lib, hozirgi kunda paxta tolasi yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida paxta bo'yicha xalqaro konsultativ qo'mita (ICAC)ning ma'lumotlariga ko'ra "... jahon miqyosida har yili 23-24 mln tonna paxta tolasi ishlab chiqarilmoqda, uning istemoli esa 24-25 mln tonnani tashkil etishini"¹ hisobga olsak, paxta tozalash korxonalarini yangi resurstejamkor texnik va texnologiyalar bilan jihozlash, maxsulot tannarxini kamaytirish, chigitdan tolani ajratish texnika va texnologiyalarni takomillashtirish orqali amaliyotga joriy etishini taqozo etadi. Shu jihatdan tolaning tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlaydigan yuqori samarali, energiya tejavchi texnologiyalar va paxtani iflos aralashmalaridan tozalash uchun yangi uskunalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahon tajribasida paxtani dastlabki ishlashning texnika va texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha keng miqyosda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, paxtani iflos aralashmalardan tozalashning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, paxtani quritish va tozalashning resurstejamkor samarali uskunalari yaratish vazifalari qo'yilmoqda. Ishlab chiqarishning har bir bosqichida maxsulot sifati va miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qiluvchi texnikaviy yechimlarni, paxtani tozalash texnologik jarayonida uning dastlabki sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolish imkonini beradigan, maxsulot sifatini boshqara oladigan texnologiyalarni ishlab chiqish, ishlash rejimlari va ko'rsatkichlarini optimallashtirish yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikada yangi iqtisodiy tizimlarning keng miqyosda joriy etilishi, xususan, paxta-to'qimachilik klasterlarining tashkil etilishi paxta tolasini ishlab chiqaruvchi paxta tozalash korxonalarini uchun ishlab chiqarishni boshqarishda moslashuvchanlik, samaradorlik, resurslardan oqilona foydalanish va paxta tolasining tabiiy sifat ko'rsatkichlarini maksimal darajada saqlash kabi bir qator talablarni belgilash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. "2022-2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Qarorida: "...makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ...iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish"² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxta yetishtiruvchi mamlakatlar yutuqlari va tajribasini hisobga olgan holda resurslarni tejaydigan, zamonaviy texnologiya va texnikani rivojlantirish orqali erishish mumkin bo'lgan tolaning sifatini oshirish va tannarxini pasaytirish zarurligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ International cotton advisory committee. Washington, From the Secretariat of the ICAC. <https://icac.org/emailsecretariat@icac.org>, September 1, 2019

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillardagi mo'ljallangan yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022 yil 6 iyuldagi PQ-307 sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajariladi.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Paxtani tozalash uskunalari takomillashtirish bo‘yicha qator chet el olimlari M.N.Willcutt, S.E.Hughs, G.J.Mangialardi, S.G.Jasckson, G.C.Robert, W.S.Anthony, R.M.Sutton, R.V.Barker, P.A.Boving, J.W.Laird, V.G.Arude, S.K.Shukla, T.S.Manojkumar, D.W.VanDoorn, B.M.Norman va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Paxtani iflos aralashmalardan tozalash texnika va texnologiyasi, asosiy ishchi qismlarining ko‘rsatkichlari va ishlash rejimlarini takomillashtirish bo‘yicha Respublikamizning bir kator olimlari, jumladan, B.A.Levkovich, S.D.Boltaboyev, A.N.Nuraliyev, S.A.Samandarov, G.I.Miroshnichenko, R.Z.Burnashev, G.D.Djabbarov, S.D.Baltabayev, G.I.Boldinskiy, R.V.Korabelnikov, B.I.Roganov, X.K.Tursunov, A.Djurayev, E.T.Maksudov, T.M.Quliyev, A.Ye.Lugachev, X.T.Axmedxodjayev, R.M.Muradov, B.Mardonov, Sh.Sh.Xakimov, O.Sarimsokov, X.K.Raxmonov, I.D.Madumarov, A.X.Bobomatov va boshqalar soha rivojiga munosib hissa qo‘shdilar.

Mazkur tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan mashinalar soha ishlab chiqarishida muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanilib kelinayotgan bo‘lsada, paxta xom ashyosidan yuqori sifatli tola olinishini ta‘minlaydigan, shu jumladan yirik iflosliklardan tozalash mashinalarini ishchi organlarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ ning alm-20230619233-sonli "zamonaviy paxta tozalash korxonalarini uchun innovatsion avtomatlashtirilgan resurstejamkor maxalliy texnika va texnologiyalar kompleksini yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxta xomashyosini yirik iflosliklardan tozalashda arrachali barabanlar sonini oshirmagan xolda, yo‘naltiruvchi cho‘tkali barabanlarni qisqartirish evaziga tozalash sonini rostdash imkoniyatlarini yaratish, arrachali barabanlarni ishlatilmagan xolatda ulardan paxtani keyingi qoziqli barabanlarga uzatib berish vazifasini bajarish maqsadida UXK agregati yirik iflosliklardan tozalash seksiyasini takomillashtirish va konstruktiv parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paxta xomashyosini yirik iflosliklardan tozalashda ishlatiladigan mahalliy va xorijiy texnologik mashinalarni ishlash tamoyillari, konstruktiv xususiyatlarni, texnik va texnologik tasniflarini analitik tahlil etish;

paxta xomashyosini yirik iflosliklardan tozalashdagi arrachali baraban parametrlarini tozalash jarayoniga ta'sirini nazariy tahlil etish;

paxta xomashyosini yirik iflosliklardan tozalashning sifat va unumdorlik ko'rsatkichlarini oshirishni ta'minlovchi mashinaning texnologik konstruksiyasini ishlab chiqish;

paxta xomashyosini yirik iflosliklardan tozalashni usulini ishlab chiqish va uni amalga oshirish imkonini beradigan texnologik mashinani tajribaviy tadqiqotlarini baholash;

paxta xomashyosini yirik iflosliklardan tozalash uchun takomillashtirilgan mashinani ishlab chiqarish sinovlarini o'tkazish va samaradorlik ko'rsatkichlarini asoslash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida UXK agregatini paxtani yirik iflosliklardan tozalash seksiyasi bazasida takomillashtirilgan ishchi organlarni joylashtirib o'zgartirilgan tajriba nusxasi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida mavjud UXK agregatini paxtani yirik iflosliklardan tozalash seksiyasini takomillashtirilib paxtani tozalash sonini rostdash jarayonini uning texnologik parametrlariga bog'liqligi qonuniyatlari, paxta bo'lagini arrachali barabanni aylanishlar yo'nalishiga bog'liq xarakati qonuniyatlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematikaviy hisoblash qoidalari, nazariy mexanika qonuniyatlari, statistik tahlil usullari, LKM laboratoriya qurilmasida paxtaning tarkibidagi yirik va mayda iflosliklarni aniqlash usuli bilan tajriba uskunasi tozalash samaradorligini aniqlash, eksperimentlarni matematik rejalashtirish hamda mavjud me'yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

UXK agregatining arrachali barabanini reversiv xarakatlantirish evaziga yo'naltiruvchi cho'tkali barabanlarni qisqartirishni ta'minlovchi takomillashtirilgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

yo'naltiruvchi cho'tkali barabanlarsiz paxtani yirik iflosliklardan tozalash yoki tozalamasdan keyingi qoziqli seksiyaga paxta xom ashyosini uzatishni ta'minlash shartidan yirik iflosliklardan tozalash seksiyada ishchi organlarni maqbul joylashuv parametrlari aniqlangan;

qoziqli barabandan ma'lum burchak tezligida uchib chiquvchi paxta bo'lakchalarini arrachali barabanni markaziga tashlab berish shartidan agregatning yuqori qopqog'ida maxsus to'sqich o'rnatilishi ishlab chiqilgan;

paxtani yirik iflosliklardan tozalash seksiyasini tozalashlar sonini rostlanishi amalga oshirish natijasida texnologik ish rejimlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxta xom ashyosini yirik iflosliklardan tozalash seksiyasini takomillashtirish natijasida yo'naltiruvchi cho'tkali barabanlarsiz texnologik jarayonni ta'minlovchi resurstejamkor UXK agregati ishlab chiqilgan;

paxta xom ashyosini yirik iflosliklardan tozalash seksiyasidagi tozalovchi arrachali barabanlarni reversiv xarakatini qo'llanilishi natijasida paxtani tozalashlar sonini kamaytirishga erishilgan;

takomillashtirish natijasida paxtani tozalash samaradorligini kamaymaganligi xolda, yo'naltiruvchi cho'tkali barabanlarni ishlatilmasligi xisobiga elektr energiya va resurslarni tejaliishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayoning ko'rib chiqilayotgan predmet sohasidagi nazariy va eksperimental tadqiqotlar ma'lumotlarining mosligiga, paxtani yirik iflosliklardan tozalash jarayonining matematik modellarini oqilona tanlash va paxtani yirik iflosliklardan tozalash seksiyasini takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqarishga joriy etish sinovidan o'tkazishning ijobiy natijalariga muvofiqligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati paxtani yirik ifloslikdan tozalovchi arrachali ishchi organlari bilan tozalash jarayonini bog'lanishlari va tozalash effektini paxtani arrachali ishchi organlarga maqbul miqdorlarda berishni analitik bog'lanishlari ishlab chiqilganligi, texnologik jarayonni ratsional parametrlarini aniqlangiligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takomillashtirilgan paxtani yirik iflosliklardan tozalash seksiyasining takomillashtirilgan nusxasidan foydalanishda paxtani yirik ifloslikdan tozalash samaradorligi oshganligi va paxta tozalash korxonalarida mavjud UXK tozalagichlarini takomillashtirish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Takomillashtirilgan konstruksiyali yirik iflosliklardan tozalash seksiyali UXK agregatini tadbiiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

UXK agregati Surxondaryo viloyati "ZAMIN ANGOR CLUSTER" MChJ paxta to'qimachilik klasteriga qarashli Angor paxta tozalash korxonasida joriy etilgan (O'zbekiston klasterlar uyushmasining 2024 yil 2 apreldagi №03/22-151-son malumotnomasi). Natijada takomillashtirilgan yirik iflosliklardan tozalash seksiyali UXK agregatida yirik iflosliklardan tozalash 1,2 % -2,1 % ortdi, takomillashtirilgan yirik iflosliklardan tozalash seksiyali amaldagi UXK agregatiga nisbatan paxta tarkibidagi chigitni mexanik shikastlanganligi 0,7 % ga kamaydi, o'rnatilgan quvvati 64 kVt ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, tavsiya etilgan tozalash seksiyalarini joriy etishda har bir komplekt UXK agregati uchun 9-12 kVt/soat elektr energiyasi sarfi tejaliishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo'yicha 2 ta halqaro va 2 ta Respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola nashr etilgan, shulardan 2 ta maqola Respublikada, 2 ta maqola chet el jurnallarida chop etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 99 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismi dissertatsiya mavzusining dolzarbligini asoslab bergan, tadqiqot maqsadi va vazifalarini shakllantiradi, tadqiqot ob'ekti va predmetini tavsiflaydi, tadqiqotni respublika fan-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligini ko'rsatadi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qiladi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib beradi, tadqiqot natijalarini, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, haqida ma'lumot beradi.

Dissertatsiyaning birinchi "**Paxtani yirik iflosliklardan tozalash texnologik jarayoni tahlili**" deb nomlangan birinchi bobi adabiy manbalarning tahliliy sharhiga va paxta xomashyosini iflosliklardan tozalash texnologiyasi va texnikasining hozirgi holatiga bag'ishlangan. Paxtani oqimli tozalash agregati UXK amalda qo'llanilib kelinmoqda, unda qoziqli barabanlari bilan mayda ifloslikdan tozalash bo'limi va kolosnikli panjaralari, cho'tkali yechuvchi barabanlar bilan o'ralgan arrachali silindrli yirik ifloslikdan tozalash bo'limi mavjud.

Amaldagi paxta xom ashyosini tozalagichning asosiy kamchiligi shundaki, yirik ifloslikni tozalash bo'limida ikkita yo'naltiruvchi cho'tkali barabanlari mavjud, bu konstruksiyani murakkablashtiradi va energiya sarfini oshiradi. Bu kamchilikni bartaraf etish maqsadida texnik yechim ishlab chiqildi (1-rasm). Paxta tozalash agregatining yirik ifloslikdan tozalash seksiyasining 1-rasmdagi sxema bo'yicha ishlashi. quyidagicha amalga oshiriladi.



1-rasm. Arrachali tozalash seksiyasini va mayda ifloslikdan tozalagichlarning qoziqli barabanlarini o'zaro joylashish sxemasi

Paxta xom ashyosi oldingi mayda ifloslikdan tozalagich seksiyasining qoziqli barabani 1 bilan to'rtli yuza bo'ylab tashilganida mayda ifloslikdan tozalanadi, so'ngra yuqori gorizontaal qopqoq va asosiy arrachali baraban 2 yuzasi orasida hosil qilingan aylanma kanalining birinchi qismiga beriladi. asosiy arrachali barabani 2 regeneratsiya barabani 5 bilan reversiv (qarama-qarshi tomonga) aylantirish uchun umumiy uzatmaga ega.

Tozalagichning ish rejimida ishlaganida arrachali baraban 2 soat miliga teskari aylanadi va yuqori qopqoqdan aks ettirilgan paxta xom ashyosi u tomonidan ushlanib, arrachali tishli yuzaga ilashtirish cho'tkasi 3 yordamida mahkamlanadi va panjaraning kolosniklari 4 bilan to'qnashganda begona iflos aralashmalaridan tozalanadi. Keyin paxta xom ashyosi arrachali baraban 2 dan soat mili yo'nalishi bo'yicha aylanadigan yechuvchi baraban 6 tomonidan yechib olinadi va yo'naltiruvchi plastina 8 da aks etib keyingi tozalagich seksiyasining qoziqli barabani 10 ga uzatiladi.

Kolosnikli panjara 4 orqali tushib ketgan begona iflos aralashmalar bilan paxta bo'laklari ilashtirish cho'tkasi bilan regeneratsiya arrachali barabani 5 ga maxkamlanadi va u yerda panjara kolosniklari bilan to'qnashadi, begona iflos aralashmalardan tozalanadi va keyin yechuvchi baraban 6 bilan regeneratsiya barabani 5 dan yechilib arrachali baraban 2 ga uzatiladi, u yerda tozalanayotgan paxtaning asosiy oqimi bilan aralashtiriladi. Kolosniklar orqali tushgan begona iflos aralashmalari shnek 12 bilan tozalagichdan chiqariladi.

Tozalagichning aylanma rejimida ishlayotgan bo'lsa (arrachali barabanlar ishlatilmayotgan xolati), asosiy va regeneratsiya arrachali barabanlar 2, 5 yechuvchi baraban 6 kabi, soat mili yo'nalishi bo'yicha aylantiriladi. Yuqori qopqoqdan aks ettirilgan paxta xom ashyosi arrachali baraban 2 ga tushadi va uning tishlarini orqa tomoni bilan gorizontaal devor bo'ylab qiya devor 9 ga tashlab beriladi, uning yo'nalishi bo'yicha keyingi mayda iflosliklardan tozalagichi qoziqli barabani 10 ga beriladi. Bu holatda, paxta bo'laklarining bir qismi plastinka 8 ga tushadi va uning sirtida pastga siljib yechib oluvchi baraban 6 tomonidan yaratilgan havo oqimi bilan qoziqli barabani 10 ga yo'naltiriladi. Yechib oluvchi baraban 6 yuzasiga urilgan alohida paxta bo'laklari markazdan qochma kuchning ta'siri tufayli u tomonidan qoziqli barabanga tashlanadi.

Dissertatsiyaning **“Ishlab chiqilgan uxk agregatini paxtani yirik iflosliklardan tozalash seksiyasida tozalash jarayonini nazariy o'rganish natijalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ishlab chiqilgan paxtani yirik iflosliklardan tozalash seksiyasining asosiy parametrlari va ish rejimlarini nazariy asoslash natijalari keltirilgan.

2-rasmga e'tibor qaratamiz, bu yerda paxta bo'lakchasi uchish yo'lining oxirida qiya devor bilan uchrashadi. Keyingi bosqichda paxta bo'lakchasining qoziqli barabandan ufqqa burchak ostida uchib chiqishi muammosini hal qilish va havo qarshiligini hisobga olgan holda uni qiya devor bilan to'qnashgunga qadar xarakati qonuniyatlarini nazariy o'rganishdan iborat bo'ladi.

Ko'rilayotgan xolat uchun xavoning qarshilik kuchini quyidagi ifoda bilan keltirish mumkin:


$$F_{\text{qonbos}} = \frac{1}{2} \rho A C_d V^2 \quad (1)$$

Bu yerda: ρ – xavoni zichligi, kg/m³;

- A – paxta bo'lakchasini ko'ndalang kesimi maydoni, m²;

- C_d – yonbosh qarshilik koeffitsienti (aerodinamik koeffitsient);

- V – paxta bo'lakchasini xavoga nisbatan tezligi, m/s.



1-paxta bo'lakchasi, 2-qiya devor

2-rasm. Paxta bo'lakchasini qoziqli barabandan ajralgandan keyin qiya devorga tomon xarakati sxemasi

Soddalashtirish maqsadida quyidagilarni kiritamiz:

$$k = \frac{1}{2} \rho A C_d \quad (2)$$

Endi paxta bo'lakchasining qiya devor bilan uchrashadigan vaqt (t_p), momentini topamiz, bu shuni anglatadiki ($y = y_p$):

$$y_p = V_0 \sin(\theta) \cdot t_p - \frac{1}{2} g t_p^2 - \frac{1}{2} \frac{k}{m} (V_0 \sin(\theta))^2 t_p^2 \quad (3)$$

Bu yerda: V_0 – paxta bo'lakchasini qoziqli barabandan uchib chiqishdagi boshlang'ich tezligi, m/s;

m – paxta bo'lakchasini massasi ,kg;

t_p - paxta bo'lakchasini qiya devor bilan uchrashish vaqti, c.

Endi biz ushbu (3) tenglamani (t_p). ga nisbatan yechishimiz mumkin. Bu (t_p). ga nisbatan kvadrat tenglama bo'ladi. Ushbu tenglamaning yechimi paxta bo'lakchasini qiya devorga duch kelgan vaqtini beradi.

Bir marta biz (t_p). topamiz., biz harakatning gorizontol tenglamasidan (x_p): ning gorizontol holatini topish uchun foydalanishimiz mumkin.:

$$x_p = V_0 \cos(\theta) \cdot t_p - \frac{1}{2} \frac{k}{m} (V_0 \cos(\theta))^2 t_p^2 \quad (4)$$

Paxta bo'lakchasi qiya devorga duch kelganda (t_p), vaqt momentini topish uchun biz (x_p) dan foydalanamiz va tenglamani yechamiz:

Endi qiya devorga duch kelganda paxta bo'lakchasining tezligini topish uchun (t_p) vaqt momentidagi (V_y) tezlikning vertikal tashkil etuvchisidan foydalanishimiz mumkin:

$$V_y = V_0 \sin(\theta) - g t_p - \frac{k}{m} (V_0 \sin(\theta)) t_p \quad (5)$$

Qiya devorga duch kelgandagi (V_x) tezlikning gorizontol tashkil etuvchisini quyidagicha aniqlashimiz mumkin:

$$V_x = V_0 \cos(\theta) - \frac{k}{m} V_x t_p \quad (6)$$

Endi biz qiya devor bilan uchrashish vaqtida paxta bo'lakchasining vertikal va gorizontal tashkil etuvchilari- (V_x) va (V_y) qiymatlariga egamiz. Qiya devor bilan to'qnashganda paxta bo'lakchasining umumiy tezligini topish uchun Pifagor teoremasidan foydalanishimiz mumkin:

$$V_{o'g'uq} = \sqrt{V_x^2 + V_y^2} \quad (7)$$

Bu (7) tenglama bizga qiya devorga duch kelganda paxta bo'lakchasining umumiy tezligini aniqlashga imkon beradi. Keling, paxta bo'lakchasining qiya devorga urilgandan keyingi tiklanish burchagini aniqlaylik, paxta bo'lakchasini qiya devordan tushganidan keyin koordinatalar bilan oxirgi nuqtani aniqlaymiz.


Tiklanish burchagini (β) belgilaymiz, (3-rasm) qiya devorga ta'siridan so'ng, paxta bo'lakchasi qiya devorga nisbatan normal bo'ladi. Tiklanish burchagini impuls va energiyaning saqlanish qonunlari yordamida topish mumkin.

Qiya devorga perpendikulyar yo'nalishda impulsning saqlanish qonuni quyidagicha keltirilishi mumkin:

$$mV \sin(\alpha) = mV_f \sin(\beta) \quad (8)$$

Bu yerda: V – paxta bo'lakchasini boshlang'ich tezligi, m/s;

V_f – paxta bo'lakchasini qiya devorga urilgandan keyingi tezligi, m/s.



1-paxta bo'lakchasi, 2-qiya devor

3-rasm. Paxta bo'lakchasini qiya devorga urilgandan so'ng tiklanish xarakati sxemasi

Ta'sir yo'nalishi bo'yicha energiyaning saqlanish qonuni, agarda qiya devorni konsol deb taxmin qiladigan bo'lsak, quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\frac{1}{2} mV^2 = \frac{1}{2} mV_f^2 + \frac{1}{2} I\omega_f^2 \quad (9)$$

Bu yerda: I – qiya devorni inersiya momenti,

ω_f – zarbadan keyin qiya devorning burchak tezligi (bu chiziqli tezlik va tiklanish burchagi bilan bog'liq).

Paxta bo'lakchasini qiya devorga urilgandan keyingi tiklanish tezligini quyidagilardan topish mumkin

$$\frac{1}{2} mV^2 = \frac{1}{2} mV_f^2 + \frac{1}{2} kx^2 \quad (10)$$

Bu yerda:- k – nton/metr da o'lchanadigan materialning elastiklik (qattiqlik), koeffitsienti, (N/m)

$$k = \frac{3EI}{L^3} \quad (11)$$

Bu yerda:- E – qiya devor materialining elastiklik moduli ko'rsatkichi, Pa;

I – aylanish o'qiga nisbatan qiya devor kesimining inersiya momenti, m^4 ;

L – qiya devorni uzunligi m.,
 x - metr (m) bilan o'lchangan muvozanat holatiga nisbatan siljish (deformatsiya), (m).

(10) tenglamadan paxta bo'lagini qiya devorga urilgandan keyingi tezligini topamiz:

$$V_f = \sqrt{\frac{mV^2 - kx^2}{m}} = \sqrt{\frac{mL^3V^2 - 3EIx^2}{mL^3}} \quad (12)$$

Inersiya momenti I qiya devorning shakli va massasiga bog'liq bo'ladi. Soddalashtirish uchun qiya devor bir hil va to'rtburchak shakliga ega deb faraz qilaylik. Keyin

$$I = \frac{1}{12} m_p L^2 \quad (13)$$

Bu yerda (m_p) – qiya devorni massasi,

Qiya devor konsolli o'rnatilganligi sababli, aylanish markazi maxkamlangan bo'ladi, keyin qiya devorning burchak tezligini quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

biz oladigan qiya devor tezligi (ω_f) sifatida ifodalanishi mumkin

$$\omega = V_f \frac{\sin(\beta)}{R} \quad (14)$$

Bu yerda: R – qiya devorni og'irlik markazidan paxta bo'lakchasini urilish nuqtasigacha bo'lgan masofa, m.

Qiymatlarini qo'ygach quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\frac{1}{2} mV^2 = \frac{1}{2} mV_f^2 + \frac{1}{2} \cdot \frac{1}{12} m_p L^2 \cdot \left(\frac{V_f \sin(\beta)}{R} \right)^2 \quad (15)$$

Keyin, (15) tenglamani yechish orqali (β) ning qiymatini quyidagicha aniqlash mumkin bo'ladi.

$$\arcsin \beta = \sqrt{\frac{12(mV^2 - mV_f^2)R}{m_p L^2 V_f^2}} \quad (16)$$

Havo qarshiligini hisobga olgan holda ufqqa burchak ostida otilgan paxta bo'lakchasining harakati muammosini hal qilish uchun biz harakat tenglamalaridan foydalanishimiz va havo qarshilik kuchining ta'sirini hisobga olishimiz mumkin.

Havoning qarshilik kuchi harakat yo'nalishiga qarama-qarshi va paxta bo'lakchasining tezligi kvadratiga proporsional bo'ladi:

$$F_{qarsh} = -kV^2 \quad (17)$$

bu yerda: V –paxta bo'lakchasining tezligi.

Havoning qarshilik kuchi harakatga qarama-qarshi yo'naltirilgan, shuning uchun uning qiymati manfiy.

Endi biz harakat tenglamalaridan foydalanishimiz mumkin:

Gorizontal harakat uchun, x:

$$x(t) = x_0 + V_0 \cos(\theta)t \quad (18)$$

Vertikal xarakat uchun, u:

$$y(t) = y_0 + V_0 \sin(\theta)t - \frac{1}{2}gt^2 \quad (19)$$

Bu yerda:

x_0 i y_0 – uchish yo'li boshlanishidagi koordinalar nuqtasi.

$x(t)$ i $y(t)$ – vaqtning t ga teng qiymatida koordinatalar nuqtasi

Xavoning qarshilik kuchini hisobga oladigan bo'lsak:

$$\begin{cases} ma_y = -mg - kV_y^2 \\ ma_x = -kV_x^2 \end{cases} \quad (20)$$


Bu yerda: a_x i a_y – mos ravishda gorizontal va vertikal yo'nalishdagi tezlanishlar.

Endi biz bu tezlanishlarni quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

$$\begin{cases} a_x = -\frac{k}{m}V_x^2 \\ a_y = -g - \frac{k}{m}V_y^2 \end{cases} \quad (21)$$

Qoziqli barabanning aylanish tezligi 7 m/s, paxta bo'lakchasini ishqalanish koeffitsientini metall uchun 0,3, to'rli yuzaning teginish burchagi 15° , gorizontalga nisbatan qiya devorning qiyalik burchagi 20° , qiya devorni chiqish nuqtasidan masofasi 300 mm, pastki arrachali baraban qiya devordan 400 mm uzoqlikda joylashgan deb hisoblagan xolda raqamli hisob qilaylik. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, paxta bo'lakchasi pastki arrachali barabanning ustiga 1,2 m/s tezlikda tushadi. zonada arrachali barabanining markazidan 23 mm ga uriladi. 4-rasmdagi grafikdagi shartlarni qondiradigan narsa baraban markaziga qarab paxta bo'lakchasi turli tezliklarda qaerga tushishi grafigini ko'rsatadi



4-rasmdagi grafikdan ko'rinib turibdiki, paxta bo'lakchasi qiya devorning qiyalik burchagining oshishi bilan baraban markazidan yanada uzoqroq masofaga tushadi, qiya devorning optimal qiyaliklik burchagi 15° , burchakning oshishi ruxsat etilgan tushish nuqtasining og'ishiga olib kelishi mumkin. Qiya devor bilan uchrashuv nuqtasi 330 mm dan kam bo'lmasligi kerak va zarba kuchi 0,0042 kgs ni tashkil qiladi, bu paxta tarkibidagi chigitning shikastlanishiga olib kelmaydi.



4-rasm. Paxta bo'lakchasini arrachali barabanning markaziga nisbatan tushish masofasini tezlikka bog'liqlik grafigi

Yirik iflosliklardan tozalash seksiyasidagi yo'naltiruvchi cho'tkali barabanlar o'rniga o'rnatiladigan qiya devorning maqbul burchagi 15° bo'lgani ma'qul, bu burchakning oshishi paxta bo'lakchasini ruxsat etilgan tushish nuqtasining og'ishiga olib kelishi mumkin. Qiya devor bilan uchrashish nuqtasi 330 dan kam bo'lmasligi kerak va zarba kuchi 0,0042 kgs ni tashkil qiladi, bu paxta tarkibidagi chigitning shikastlanishiga olib kelmaydi.

Dissertatsiyaning **“Taklif etilgan texnik yechim bo'yicha laboratoriya stendini tayyorlash va amaliy tajribalarni natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobida eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishning maxsus ishlab chiqilgan uslublari, shuningdek, ishlab chiqilgan paxtani yirik iflosliklardan tozalash seksiyasini parametrlari va ish rejimlarini aniqlash uchun eksperimental tadqiqotlar natijalari bayon etilgan.



5-rasm. Paxtani mayda va yirik iflosliklardan oqimli tozalagichining takomillashtirilgan stendi sxemasida o'rganiluvchi parametrlar (chapda) va uning ko'rinishi (o'ngda)

“Paxtasanoat ilmiy markazi” AJ ning laboratoriya binosida o'rnatilgan UXK oqimli tozalagich uskunasi stendini taklif etilgan texnik yechim (5-rasm) bo'yicha takomillashtirilgan sxema asosida o'zgartirishlar kiritilib tayyorlandi.

Tajribalarni o'tkazish vaqtida paxta xom ashyosining tozalash samaradorligi aniqlandi, buning uchun paxtani tozalashdan avvalgi va tozalashdan keyingi ifloslik ko'rsatkichlari Paxta sanoat ilmiy markazining laboratoriyasi sharoitida olingan paxta namunalarini taxlil qilish yo'li bilan o'rganildi. Taklif etilgan paxtani tozalash seksiyasini ish unumdorliklarini aniqlash uchun laboratoriya stendida ma'lum qayd etilgan vaqt davomida tozalangan paxta xom ashyosini tarozida tortish va uni tozalagichni natural o'lchamlariga xisoblash yo'li bilan aniqlandi.

Qoziqli va arrachali barabanlari o'qlarining gorizont tekislikda orasidagi masofani paxtani tozalash samarasi va chigitni mexanik shikastlanishiga ta'sirini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Qoziqli va arrachali barabanlari o'qlarining gorizontalk tekislikda orasidagi masofani paxtani tozalash samarasini va chigitni mexanik shikastlanishiga ta'siri

qoziqli va arrachali barabanlari o'qlarini orasidagi masofa mm	UXK ni tajriba tozalash agregatiga xisoblangan (S-6524, 2-nav)			UXK ni tajriba tozalash agregatiga xisoblangan (S-6524, 3-nav)		
	Tozalash samaradorligi, %		Chigitni mexanik shikastlanishini oshishi, %	Tozalash samaradorligi, %		Chigitni mexanik shikastlanishini oshishi, %
	Yirik ifloslik bo'yicha	Ummiy		Yirik ifloslik bo'yicha	Ummiy	
460	81,6	71,0	0,8	83,5	71,0	0,9
	81,4	69,8	0,6	83,8	72,1	0,7
	82,2	71,4	0,7	83,2	70,6	0,6
o'rtacha	81,7	70,73	0,7	83,5	71,2	0,73
470	83,6	72,8	0,9	85,6	76,8	0,7
	83,9	73,4	0,7	85,1	77,0	0,6
	83,5	7,30	0,6	84,9	76,6	0,8
o'rtacha	83,66	73,06	0,73	85,2	76,8	0,7
480	80,4	68,7	0,7	83,6	72,0	0,8
	80,0	68,9	0,8	83,5	71,8	0,7
	80,8	68,5	0,8	83,9	72,2	0,9
o'rtacha	80,4	68,7	0,76	83,66	72,0	0,8

1-jadvalda keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, qoziqli va arrachali barabanlari o'qlarining gorizontalk tekislikda orasidagi masofani tajriba yirik iflosliklardan tozalash seksiyasida paxtani tozalash samarasiga ta'sir etar ekan. Bunda eng maqbul masofa sifatida qoziqli va arrachali barabanlari o'qlarining gorizontalk tekislikda orasidagi masofani 470 mm ga teng variantini qabul qilib olingani yaxshi, chunki bu variantda o'rganilgan ikkita boshqa variantlardagiga nisbatan paxtani umumiy va yirik iflosliklardan tozalash samaradorligi yuqoriroq bo'lishiga erishildi. Bunga sabab, qoziqli baraban bilan yo'naltirilgan paxta bo'lakchalari arrachali barabanning vertikal o'qigacha bo'lgan masofada barabanning ustiga tushayotgani kuzatildi.

2-jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, tavsiya etilgan paxtani yirik iflosliklardan tozalash seksiyasidagi qoziqli va arrachali barabanlari o'qlarining vertikal tekislikda orasidagi masofaning tozalash seksiyasini ish jarayoniga ta'sirini o'rganish vaqtida arrachali baraban o'qini joylashish joyini bazaviy miqdori 40 mm ni tanlab olingan varianti, ya'ni bunda qoziqli va arrachali barabanlarni uchlari bilan tozalagichning yuqori qopqog'igacha bo'lgan masofa bir-biriga teng bo'lib, 180 mm ni tashkil etganida paxtani umumiy va yirik iflosliklardan tozalash samaradorligi qolgan ikkita variantlarga nisbatan yuqoriroq bo'ldi.

Qoziqli va arrachali barabanlari o'qlarining vertikal tekislikda orasidagi masofani paxtani tozalash samarasi va chigitni mexanik shikastlanishiga ta'siri

qoziqli va arrachali barabanlari o'qlarini vertikal tekislikda orasidagi masofa , mm	UXK ni tajriba tozalash agregatiga xisoblangan (S-6524, 2-nav)			UXK ni tajriba tozalash agregatiga xisoblangan (S-6524, 3-nav)		
	Tozalash samaradorligi, %		Chigitni mexanik shikastlani shini oshishi,%	Tozalash samaradorligi, %		Chigitni mexanik shikastlani shini oshishi, %
	Yirik ifloslik bo'yicha	Umu miy		Yirik ifloslik bo'yicha	Umu miy	
40	83,6	72,8	0,9	85,6	76,8	0,7
	84,1	73,4	0,7	85,1	77,0	0,8
	83,4	72,5	0,6	84,9	76,6	0,8
o'rtacha	83,7	72,9	0,73	85,2	76,8	0,76
80	81,6	71,0	0,7	83,6	72,8	0,9
	81,0	70,8	0,6	83,1	73,0	0,7
	81,9	71,4	0,8	83,9	72,6	0,6
o'rtacha	81,5	71,1	0,7	83,53	72,8	0,73
120	80,4	68,7	0,8	81,6	71,0	0,7
	80,0	69,2	0,7	81,4	71,8	0,8
	80,7	68,3	0,9	82,4	71,4	0,7
o'rtacha	80,36	68,7	0,8	81,8	71,4	0,73

O'rganilgan ikkita variantda, ya'ni tavsiya etilgan paxtani yirik iflosliklardan tozalash seksiyasidagi qoziqli va arrachali barabanlari o'qlarining vertikal tekislikda orasidagi masofaning 80 va 120 mm ga teng bo'lgan variantlarida paxtani umumiy va yirik iflosliklardan tozalash samaradorligi birinchi variantga nisbatan pasayishi kuzatildi. Bunga asosiy sabab, tozalagichning tajriba nusxasida arrachali barabanning uchlari bilan tozalagichning yuqori qopqog'i orasidagi masofa kattalashgani sari uning ustki qismida qoziqli barabandan uzatib berilayotgan paxta bo'lakchalarini to'planib qolishi va bu to'planib qolgan paxta bo'laklarini bir qismini arrachali baraban bilan orqaga, qoziqli baraban tomonga otib yuborilishini ko'rsatishimiz mumkin.

Arrachali barabanning vertikal o'qi bilan yuqori qopqoqdagi qiya devorni o'rnatilish joyi orasidagi masofani paxtani tozalash samarasi va chigitni mexanik shikastlanishiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tajriba natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

